



QISHLOQ XO'JALIGI HAYVONLARIDA UCHRAYDIGAN KUYDIRGI INFEKSION KASALLIGI

Daminov Jo'rabek Nodir o'g'li¹, To'raboyeva Diyora Ulug'bek qizi²
Madaminov Umirbek Maqsud o'g'li³

¹ Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali assistenti

^{2,3} Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7232943>

ARTICLE INFO

Received: 03rd October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 19th October 2022

KEY WORDS

*Dicrocoeliidae, Dicrocoelium,
lanceatum,
trematoda, alben, albenzal*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada dikroselioz kelib chiqishi, uni qay
turlari mavjudligi va qanday og'ir, salbiy oqibatlarga olib
kelishi haqida so'z boradi.*

Mavzuning dolzarbligi.

Mamlakatimizda dikroselioz bilan kasallanish asosan tog' va tog'oldi mintaqalarida kuzatiladi. Sababi bu mintaqalarda kasallikning oraliq xo'jayinlari yashashi uchun qulay sharoit mavjud. Bunday hududlarda katta yoshdagi qo'ylar kasallanishi 93 % gacha, 1-2 yoshdagi qo'ylar esa 87 % gacha va bir yoshgacha bo'lgan qo'zilar 66 % ni tashkil etadi. Birinchi oraliq xo'jayinlari bo'lgan molluskalarning zararlanish ko'rsatkichi 5-5.8 % hisoblanadi. Bitta qo'y jigarida parazitlar soni 50 000 tagacha borishi mumkin, bunday holatlar hayvon o'limi bilan tugaydi.


Kasallik qo'zg'atuvchisi.

Dikroseliozni *Dicrocoeliidae* oilasiga mansub *Dicrocoelium lanceatum* trematodasi qo'zg'aydi. Ular mayda, lansetsimon, uzunligi 10-15 mm, eni 1.5-2.5 mm bo'lib, rangi jigarrang bo'ladi. Tuxumdon va urug'lari tanasining oldingi qismida, so'rg'ichlari bir-biriga yaqin joylashgan bo'ladi. Tuxumlari mayda, asimmetrik, to'q-jigarrang, o'lchami 0.038-

0.045

x0.022-0.030

mm



Dikrotse-liumlar turkumiga mansub parazit yassi chuvalchang (trematoda) bo'lgan lanset-simon chuvalchangning tuxumlari atrof-muhit omillariga juda chidamli. Ular -23 °S (ba'zi hollarda -50 °S) gacha bo'lgan haroratga bardosh beradilar va xona haroratida bir hafta davomida quritishga toqat qiladilar.

Kasallik qo'zg'atuvchisi rivojlanishi.

Dikroseliyalar uchta xo'jayin ishtirokida rivojlanadi.

- ❖ Definitif xo'jayini - *Helicella* avlodiga mansub molluskalar
- ❖ Qo'shimcha xo'jayini - *Formica* va *Proformica* avlodiga mansub chumolilar



❖ Asosiy xo'jayini- qoramol, echki, ot va boshqa bir tuyoqli va kemiruvchilar

Jinsiy voyaga yetgan trematodalar jigar o't yo'llariga va o't xaltasiga qo'ygan tuxumi o't suyuqligi bilan o'n ikki barmoqqa tushadi va tezak orqali chiqib ketadi. Bu tuxumlar ichida yetilgan mirasidiylar tuxum pardasidan chiqa olmaydi va molluskalar tuxumni yutadi. Trematoda 3-6 oy davomida molluska tanasida rivojlanadi. Molluskalar ichagida mirasidiylar jigarga boradi va u yerda sporosistaga keyin esa serkariylarga aylanadi. Serkariylar yetilgach molluskaning nafas yo'llariga boradi. U yerda 100-300 tadan to'planib, shilliq tugunchalarni keltirib chiqaradi. Natijada nafas yo'llari orqali tashqariga chiqadi va o'simliklarga yopishib oladi. Serkariyalardan iborat tugunchani chumolilar istemol qiladi. Serkariylardan esa 1-2 oy davomida chumolilarning qorin bo'shlig'ida va bosh qismida metaserkariylar rivojlanadi. Hayvonlar esa zararlangan chumolilarni istemol qilish orqali dikroselioz bilan kasallanadilar.

Kasallik belgilar.

Kasallikning kechishi hayvonning yoshiga bog'liq. Hayvon qancha ko'p yashasa unda shuncha reinvaziya bo'ladi va parazitlar soni esa ko'payib boradi, natijada hayvonning ahvoli yomonlashadi. Bu kasallik belgilari xarakterli emas. Faqat hayvon kuchli zararlangandagina unda ayrim alomatlar namoyon bo'ladi: unda vazn yo'qotilishi, mahsuldorlik kamayadi va ko'krak qafasida shishlar paydo bo'lishi kuzatiladi.

Kasallikni davolash.

Hayvonlarni gijjasizlantirish uchun alben (granula yoki tabletkasi), albanzel granulasi tavsiya etiladi.

- ✚ Panakur qo'y va echkilarga 1 kunda ikki marta 22.2 mg/g dozada oziqa bilan guruh usulida beriladi.
- ✚ Qoramollarga har biriga 33 mg/kg dozadan 0.5-1 kg omuxta yem bilan qo'shilib beriladi.

Politerm, tiabendazol, fazineks kabi preparatlarni qo'llash ham yaxshi natija beradi. Qo'shimcha qilib hayvonlarga albendazolni 20 mg/kg dozada berish mumkin.

Kasallik oldini olish.



Dikroseliozni oldini olishda avvalambor erta bahorda kuzatish ishlari olib boriladi. Tong vaqtida metaserkariylar bilan zararlangan chumolilarni karaxt holda ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bunday hududlarda hayvonni saqlash mumkin emas. Bu hududlarda parrandalarni boqish orqali molluskalar va zararlangan chumolilardan halos bo'lish mumkin.

- Bunday maydonlarga yomg'irdan so'ng har bir gektariga 200 kg dan xlorli kaliy o'g'iti yoki 40-60 kg metaldegid granulasi qo'llash tavsiya etiladi.
- Dikroseliozni o'choqlarini kuz oylarida shudgor qilib, donli ekinlar ekish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi
- Agarda hayvonlarda o'lim holatlari kuzatilsa unda hayvonni bog'lab boqish yoki yaylovni o'zgartirish kerak bo'ladi.
- Kasallangan hayvonni davolashda gijjasizlantirish ishlari olib boriladi. Kasallik belgilari namoyon bo'lsa qayta gijjasizlantirish o'tkaziladi.
- Dikroselioz bo'yicha kasallangan xo'jaliklar 2 marotaba noyabr va dekabr-yanvar oylarida gijjasizlantiriladi.
- fermer xo'jaliklarida maxsus go'ng saqlaydigan joylarni tashkil etish lozim.



References:

- 1."Parazitologiya terminlarining izohli lug'ati" J.A.Azimov ,E.B.Shakarboyev, D.T.Isakova Toshkent - 2007
- 2."Umumiy parazitologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar"- o'quv qo'llanma , G.Abduraxmonova , S.Dadayev – Toshkent " Go to print"- 2020
- 3."O'zbekistonda mollyuskalar orqali rivojlanadigan chorvamollari parazitlari va ularningoldini olish choralari."- oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma ,S.Dadayev – Toshkent-2008
- 4."Паразитология и инвазионные болезни сельскохозяйственных животных" К.Абуладзе - 1990
- 5."Odamlar va hayvonlarni parazitlar bilan zararlanishini tekshirish usullari"- oliy o'quv yurtlari magistratura uchun o'quv qo'llanma, S.Dadayev –Guliston-2017
- 6."Паразитология и инвазионные болезни животных" М.Ш.Акбаева -2000
- 7."Veterinariya asoslari" J.Shopo'latov – 1989
- 8."O'zbekistonda tuyoqli hayvonlar o'pkasi va jigarida parazitlik qiluvchi gelmintlar hamda ularni oldini olish choralari" S.Dadayev Toshkent-2009